

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

FI3441527822

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **"Shuxtrans servis" MCHJ bilan Oltinko'l tumani, Katta Oqtepa MFY, Bog'dod ko'chasini 2.631 metr qismini joriy ta'mirlash ishlarini olib borishlik uchun 1.177.825.793 so'mlik pudrat shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Oltinko'l tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 30.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Oltinko'l tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



Y.X.SIDDIQOV

30.11.2022

Oltinkul tuman.

SHARTNOMA № 121

"30" NOYABR 2022 yil.

Keyingi o'rinlarda "**Buyurtmachi**" deb yuritiladigan "**Oltinkul tuman Obodonlashtirish boshkarmasi**" nomida Nizomi asosida ish ko'ruvchi Boshligi M. Mirzaev, bir tomondan, matndan keyingi o'rinlarda "**Pudratchi**" deb yuritiladigan "**SHUHTRANS SERVIS**" MChJ Nizomi asosida ish ko'ruvchi rahbari Q. Ismonaliev ikkinchi tomondan ushbu shartnomani tuzdilar.

I. SHARTNOMANING MAQSADI

1.1. "**Pudratchi**" ushbu shartnoma shartlariga muvofiq Xalk deputatlari Oltinkul tuman kengashining 28 Sentyabr 2022-yil kungi № VI-33-66-1-15- k/22 sonli karoriga asosan "Ochik byudjet" axborat partali orkali fukarolar tomonidan bildirilgan takliflarga asosan "**Katta Oqtepa MFY**" Bog'dod ko'chasi joriy ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi. "**Buyurtmachi**" esa "**Pudratchi**"ga bajarilishi lozim bo'lgan ishlar uchun tegishli me'yoriy xujjatlar va tashkilot normativlari asosida tuzilgan loyixa-smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'ni to'lovini amalga oshirish majburiyatini oladi.

II. SHARTNOMANING BAHOSI VA XISOB KITOB TARTIBI

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar qiymati (barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda)ga asosan joriy narxlarda **1 177 825 793 (bir milliard bir yuz yetmish yetti million sakkiz yuz yigirma besh ming yetti yuz to'kson uch)** so'mni tashkil etadi.

2.2. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolaniib, manzillik ro'yxati tasdiqlanib moliyalashtiriladigan mablag'i aniqlangandan so'ng tegishli G'aznachilik tizimidan (Uzasbo dasturi) ro'yhatdan o'tib, mablag' Respublika yoki maxalliy byudjetdan "**Buyurtmachi**" maxsus xisobiga tushirilganidan so'ng, 10 bank ish kunida "**Buyurtmachi**" tomonidan bajariladigan ishlar qiymatining **15%** avans tariqasida kelishilgan summa "**Pudratchi**"ning xisob raqamiga o'tkazib beradi, qolgan **85%** bajarilgan ishlarning F2 F3 xujjatlariga nisbatan to'lab beriladi.

2.3. Mablag'ning qolgan qismi Respublika yoki maxalliy byudjetdan "**Buyurtmachi**" maxsus xisobiga tushirilganidan so'ng, "**Pudratchi**" tomonidan topshirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida 30 bank ish kunida o'tkazib beradi.

2.4. "**Pudratchi**" tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar 2022 yilning 31 dekabr kuniga kadar "**Buyurtmachi**" ga topshirilishi shart xisoblanadi. Kursatilgan muddatda "**Pudratchi**" tomonidan bajarilgan ishlar topshirilishi ta'minlanmagan takdirda, bajarilgan ishlar yuzasidan "**Buyurtmachi**" tomonidan moliyalashtirish masalasi kayta kurib chikiladi.

2.5. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar "**Buyurtmachi**" tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi

III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

"**Pudratchi**"ning majburiyatlari:

3.1. Mazkur shartnomada ilova qilinadigan bajariladigan ishlar jadvaliga asosan birinchi avans to'lovi tushgandan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi va mazkur shartnomaning ishlarni bajarish to'g'risidagi 1-ilovasida ko'rsatilgan jadval asosida belgilangan oylarda ishlarni ko'rsatilgan muddatlarda bajarib topshiradi.

3.2. Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjatlariga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda bajarish hamda "**Buyurtmachi**"ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

Ob'ektning ijro xujjatlarini to'liq rasmiylashtirish va buyurtmachiga topshirish, qurilish materiallarining muvofiqlik sertifikatini, ishlatilgan qurilish materiallari va uskunalarining texnik pasportini va xisob varaq fakturalar (yuk xati)dan nusxa taqdim etadi.

3.3. "**Pudratchi**" mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va yordamchi pudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun "**Buyurtmachi**" oldida to'liq mulkiy javob beradi. "**Pudratchi**" "**Buyurtmachi**" oldida yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun xam javobgar bo'ladi. "**Buyurtmachi**" "**Pudratchi**" bilan tuzgan shartnomalar buzilishi bilan bog'liq talablarni yordamchi pudratchilarga qo'ymaydi.

3.4. "**Pudratchi**" geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'liq o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, "**Pudratchi**" tegishli tuzatishlarni o'z xisobidan amalga oshiradi.

3.5. Agar berkitilgan (yopilib ketadigan) ishlar "**Buyurtmachi**"ning tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu xaqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u xolda uning talabi bo'yicha "**Pudratchi**" "**Buyurtmachi**"ning ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z xisobidan ochishga, so'ngra uni tiklashga majburdir.

3.6. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha **"Pudratchi"** qurilish montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftari (jurnal)ni yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi aks ettiriladi. **"Pudratchi"** daftar (jurnal)da **"Buyurtmachi"** tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3.7. Ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishiga **"Pudratchi"** to'liq javobgar bo'ladi.

"Pudratchi"ning huquqlari:

3.8. Bajarib beriladigan ish uchun olinadigan avans haq to'lanishini mazkur shartnomaning 2.4-bandiga ko'ra, ishni bajarib topshirgandan so'ng, mazkur shartnomaning 2.5-bandiga ko'ra to'la xajmda xisob kitob qilinishini talab qilish.

Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplanishini talab qilish.

3.8. Loyixa-smeta xujjatlarida bajarilishi ko'zda tutilgan ish xajmlari **"Pudratchi"** tomonidan to'liq va sifatli bajarilib, ayrim ish xajmlari va xarajatlari smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'ni ayrim xarajatlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish xajmlari xarajatlarini qoplash uchun ob'ektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi xujjatlar asosida **"Buyurtmachi"**ni xabardor qilgan xolda yo'naltirilishi mumkin.

3.8. **"Pudratchi"** zarur xollarda ayrim ish turlarini bajarilishida loyixa-smeta xujjatlarida belgilangan mashina-mexanizmlar o'rniga, o'z imkoniyatlardan kelib chiqqan xolda, o'rindosh mashina-mexanizmlardan foydalanishi, belgilangan sifat va texnologik jarayonning buzilmasligini ko'rsatuvchi sifat laboratoriyasi va loyixachi tashkilotning tegishli xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

3.9. Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish xajmlarida arifmetik xato va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, keyingi oylarda bajarilgan ish xajmlari tegishli o'zgartirishlar (korrektirovka) kiritilgan xolda rasmiylashtiriladi.

"Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

3.10. Tasdiqlangan loyixa-smeta xujjalari asosida bajarilgan ishlarni me'yoriy xujjatlar talablari darajasida qabul qilib olish.

3.11. Bajarilgan ishlar uchun xaq to'lanishi mazkur shartnomaning 2.4-bandiga ko'ra, ishni bajarib topshirgandan so'ng, mazkur shartnomaning 2.5-bandiga ko'ra to'la xajmda xisob kitob qilinadi.

"Buyurtmachi"ning huquqlari:

3.12. **"Pudratchi"**dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish.

3.13. Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish.

3.14. **"Pudratchi"**dan shartnomada ko'rsatilgan ishlarini loyiha xujjalari asosida ishni sifatli bajargan holda qabul qilib olish.

3.15. **"Pudratchi"** tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarni ish xujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish.

3.16. Texnik kuzatuvchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish xuquqiga egadir.

3.17. Agar **"Pudratchi"** shartnomani amal qilish muddati davomida belgilangan ob'ekt **"Buyurtmachi"** ga topshirmagan taqdirda, **"Buyurtmachi"** mazkur shartnoma muddatlari tugagandan so'ng, bajarilgan ishlar uchun mablag' berish majburiyatini olmaydi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi.

4.2. **"Pudratchi"** ob'ekt **"Buyurtmachi"**ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0,5% i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyaning summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50% idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan kamchilik va nuqsonlar **"Pudratchi"** tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa, yoki ishlar umuman bajarilmasi, **"Buyurtmachi"** to'lovlarni to'htatib, lozim darajada, yoki umuman bajarilmagan ishlarning 20% i miqdorida jarima undirilishini talab qilish huquqiga ega.

4.4. Bajarilgan ishlar uchun **"Buyurtmachi"** tomonidan o'z vaqtida haq to'lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4% miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyalarning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50% miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan penya va jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tomon ikkinchi tomonga ana shu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida yetkazgan zararlarni qoplash javobgarligidan ozod etilmaydi.

4.6. Ushbu shartnomada qo'zda tutilmagan javobgarliklar O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 25-32 moddlari asosida belgilanadi.

V. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

5.2 "Pudratchi" ning mazkur shartnomani bajarishi uchun boshqa shartlashuvchi sheriklari, yordamchi pudratchilar tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo'qligi, "Pudratchi" da zarur mablag'larning bo'lmaganligi fors-major xolatlariga kirmaydi.

VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Shartnoma asosida belgilangan mablag'ni moliyalashtirilishi bilan bog'liq muammolar kelib chiqqan taqdirda "Buyurtmachi" va "Pudratchi" o'zaro kelishuv asosida shartnomaga o'zgartirish kiritishi mumkinligi ma'lumot uchun qabul qilinadi.

6.3. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muhokama yo'llari bilan xal etiladi. Agarda o'zaro muhokama yo'li bilan xal etish imkoni bo'lmasa, Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Andijon tumanlararo Iqtisodiy sudi orqali xal etiladi.

VII. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATLARI

7.1. Shartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik tizimidan (Uzasbo dasturi) ro'yhatdan o'tgan kundan kuchga kirib, 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Ob'ektning joriy ta'mirlash bo'yicha mablag' Respublika yoki maxalliy byudjetdan "Buyurtmachi" ning maxsus xisob raqamiga 2022 yil 31 dekabr kuniga qadar ajratilmagan taqdirda mazkur shartnomaning amal qilish muddati qayta ko'rib chiqiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nus'hasi ham huquqiy jihatdan teng kuchga ega.

VIII. TOMONLARNING REKVIZITLARI

BUYURTMACHI:

Oltinko'l tuman obodonlashtirish
boshkarmasi

Markaz MFY Chinobod ko'chasi

Shxv: 401722860032027045204110010

INN: 204529051 OKONX: 90211

O'zb.Res.Moliya Vazirligi G'aznachiligi

H/R23402000300100001010

MFO:00014 INN: 201122919

Markaziy Bank Toshkent'sh XKKM

Raxbar:  M. Mirzaev

PUDRATCHI:

"SHUHTRANS SERVIS MChJ

"Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani

Qorasuv shaxar A. Temur ko'chasi №101 uy


X/r:2020 8000 7048 0974 6001

Bank:ATB Qishloq qurilish bank

Oo'rg'ontepa BXO

MFO: 01037 STIR: 301371227

QQS Qodi: 303140002949

Raxbar:  Q. Ismonaliev

MU (_____)

(_____)